

## NEVROLOGIK SOHASIDAGI KASALLIKLAR. MIGREN BELGILARI, ULARNI OLDINI OLİSH VA UNI DAVOLASH USULLARI.

Ibragimova Ziyodaxon Jalolidinovna

FJSTI, Gistologiya va biologiya kafedrasи katta o‘qituvchisi.

To’xtamurodova Ma’sumaxon Nurmurodjon qizi

FJSTI, Pediatriya yo’nalishi 5324-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1491448>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nevrologik kasalliklarning turlari, sabablari va ularning inson salomatligiga ta’siri yoritilgan. Xususan, migren kasalligi, uning asosiy belgilari, kelib chiqish omillari va xavf guruhlari haqida ma’lumot beriladi. Migrenning oldini olish choralar sifatida sog’lom turmush tarzi, stressdan qochish va to ‘g’ri ovqatlanish tavsiya etiladi.

Shuningdek, kasallikni davolash usullari – dorivor terapiya, fizioterapiya va muqobil tibbiyot yo’nalishlari ko’rib chiqiladi. Ushbu maqola migren bilan bog’liq muammolarni tushunish va ularni samarali boshqarishga yordam beradi.

**Kalit so’zlar:** Migren, Gemikraniya, Asinergiya, Diplotiya, Ptosis, Epizodik, Metoklopramid, Magnit-rezonans tekshiruv (MRT), Kompyuter tomografiya (KT), papaverin, baralgin, sitromon, torekan, assotsiyalashgan, triptan, beta-blokerlar, anticonvulsant.

## NEUROLOGICAL DISEASES. MIGRAINE SYMPTOMS, METHODS OF PREVENTION AND TREATMENT.

**Abstract.** This article discusses the types, causes and effects of neurological diseases on human health. In particular, information is provided about migraine, its main symptoms, etiological factors and risk groups. A healthy lifestyle, stress avoidance and proper nutrition are recommended as preventive measures for migraine. Treatment methods for the disease - drug therapy, physiotherapy and alternative medicine - are also considered. This article will help to understand the problems associated with migraine and effectively manage them.

**Keywords:** Migraine, Hemicrania, Asynergia, Diplotia, Ptosis, Episodic, Metoclopramide, Magnetic resonance imaging (MRI), Computed tomography (CT), papaverine, baralgin, citromone, torekan, associated, triptan, beta-blockers, anticonvulsant.

## НЕВРОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ. СИМПТОМЫ МИГРЕНИ, СПОСОБЫ ИХ ПРОФИЛАКТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ.

**Аннотация.** В данной статье описаны виды и причины неврологических заболеваний и их влияние на здоровье человека. В частности, представлена информация о

мигрени, ее основных симптомах, факторах возникновения и группах риска. В качестве мер профилактики мигрени рекомендуется вести здоровый образ жизни, избегать стрессов и правильное питание. Также рассмотрены методы лечения заболевания – медикаментозная терапия, физиотерапия и направления нетрадиционной медицины. Эта статья поможет вам понять и эффективно лечить мигрень.

**Ключевые слова:** мигрень, гемикрания, асинергия, диплопия, птоз, эпизодическая, метоклопрамид, магнитно-резонансная томография (МРТ), компьютерная томография (КТ), папаверин, баралгин, цитромон, торекан, ассоциированный, триптан, бетаадреноблокаторы, противосудорожные средства.

---

**Kirish:** Migren - (fransuzcha: migraine) bu surunkali nevrologik kasallik bo‘lib, asosan boshning bir tomonida pulsatsiyalovchi og‘riq, miya og‘rig‘i yoki gemikraniya - ya’ni o‘qtin-o‘qtin tutadigan bosh og‘rig‘i bilan tavsiflanadi. Boshdagi o‘qtin- o‘qtin og‘riq pulsni yodga soladi. Migren autosoma-dominant holda naslga o‘tadigan irsiy kasallik hisoblanadi. Ko‘p xollarda 30-50 yoshli ayollarda va 5 yoshdan oshgan bolalarda uchraydi. Migren 6% aholida uchraydi Kasallikka, ko‘pincha, qon tomir tonusini boshqarib turadigan nerv ishining buzilishi, asosan, oilada va naslda qon tomir kasalligiga beriluvchanlik sabab bo‘ladi. Migren balog‘atga yetish davrida kuzatiladi.

**Kasallik belgilari:** Ko‘ngil aynishi, boshning ko‘proq chakka qismida hamda peshona ensa qismida kuchli og‘riq, yuz ko‘zlarning qizarishi, kayfiyatning yomon bo‘lishi, sekin nutq, shovqinga ta’sirchanlik, yorqin yorug‘likka sezgirlik, umumiy zaiflik va qo‘l-oyoqlar uvushishi.

Kasallik xuruji esa, asosan, asabiylashish natijasida yoki o‘ta charchash oqibatida ro‘y beradi. Xurujning tutish muddati va uning og‘ir yengilligi yosh ulg‘ayishi bilan ham o‘zgarib boradi. Shu bilan birga turmush tarziga, mehnat va dam olish rejimiga rioya etmaslik, muntazam ovqatlanmaslik, chekish, shovqin, ravshan yorug‘likka, xotin-qizlarda esa hayz sikliga ham bog‘liq bo‘ladi. Xuruj oldidan bemorda tashnalik, ochiqish sezadi, kayfiyati o‘zgaradi, mudroq bosadi va hokazo kabi holatlarni kuzatishimiz mumkin. Xuruj tutganda ko‘z oldi jivirlab, har xil narsalar ko‘rinadi. Asosan, boshning o‘ng yoki chap yarmi (ko‘pincha, chakka qismi) og‘riydi, bosh aylanadi, yoruqqa qaray olmaydi, bemorning ko‘ngli aynib, qayt qiladi, shundan keyin og‘riq bir oz bosiladi. Migren xuruji eng kami 2–3 soatdan eng ko‘pi bilan bir necha sutkagacha cho‘zilishi mumkin.

Xurujlar o‘rtasidagi davrda bemor butunlay sog‘lom bo‘ladi. Migrenni oldini olish uchun tartibli ovqatlanish(shirinliklar, achchiqlar yoki yog‘li taomlar mumkin emas), stressni kamaytirish(ruhiy zo’riqish, tashvish va dipressiya migrenni kuchaytirishi aniqlangan), jismoniy faollik, ko‘p suyuqlik ichish, atmosfera bosimining pasayishiga e’tibor qaratish, alkogol maxsulotlarini istemol qilmaslik va har kungi normadagi uyquga (7-8 soat) e’tibor qaratish lozim agarda meyordan ko‘p yoki kam uyqu ham migrenga sabab bo‘ladi. Agar migren oyiga 4 martadan ko‘p uchrasa, dori ichganda ham yaxshilanmasa, to’satdan o‘ta kuchli og’riq paydo bo’lsa va xurujlar 48 soatdan ko‘p davom etsa albatta nevrologga murojat etish lozim. Migrenni tashxislash uchun esa nevrologik tekshiruvlar, anamnez yeg‘ish, MRT hamda KT tekshiruvlaridan o’tkaziladi.

**Davolash:** Nerv sistemasi faoliyatini normallashtirish, buyrak usti bezi, qalqonsimon bez ishini barqarorlashtirish vayerak-tomir tizimini mustahkamlash, qon tomirini kengaytiruvchi, og’riq qoldiruvchi preparatlar, fizioterapiya hamda sanchib davolash buyuriladi. Migren xuruji tutganda bemorni qorong‘i xonaga tinch yotqizib qo‘yish, oyoqlariga issiq isitgichlar, ensa sohasiga hantal qo‘yish hamda issiq shirinchoy ichkizish lozim. Qon tomirlarni kengaytiruvchi dorilar: papaverin, noshra, tinchlantiruvchi dorilar: aspirin, baralgin, sitramon tavsiya etiladi.

Xuruj holati kuzatilaytgan vaqtida 40%li 20ml glukoza komir ichiga yuboriladi, qusishga qarshi torekan 1,0 ml teriga yuboriladi. Bundan tashqari, nikotin kislotasi, kavinton, sermion 1 ta tabletkadan 3 maxal buyuriladi. Dam olish, tog’ri ovqatlanishni yo’lga qo‘yish, toza havoda sayr qilish hamda ertalabki badantarbiyaga e’tibor qaratish lozim. Kechasi yotishdan oldin oyoqlarni iliq suvga vanna qilish ham kerak. Ichish va chekishni tashlash ham migrenni davolashda yordam beradi.

#### **Migrenni turlari quyidagilar:**

- Ko‘z xilida bo‘lib, ko‘zning oldida har xil narsalar paydo bo‘ladi. Bunda ko‘z oldi tuman kabi qoplanadi, bosh og’rig‘I xuruji bilan o’tadi. Bu xuruj 6 soat davom etishi mumkin.
- Bu tur oddiy hisoblanadi. Asosan 85% gacha uchraydi. Xuruj 1 soatdan 1-2 kungacha davom etadi. Bunda bemorning kayfiyati yomonlashadi, o‘zida bezovtalik his qiladi, ish qobiliyatining pasayishi hamda uyqusizlik bilan birga ertalablari ko‘proq bosh og’rig‘i kuzatiladi
- Assotsiyalashgan migren bosh og’rig‘I hamda ko‘proq miyadagi og’riq belglari bilan kuzatiladi. Bunda gemiplegiya, ataksiya hamda nutqning buzilishi kuzatiladi.

- Qorin shakli aksaryat bolalarda uchraydi. Ularda kindik atrofidagi og'riq, qo'l-oyoq sovqotishi, bezovtalik hissi va bosh og'rig'I bilan birga qorin og'rig'I birga kechadi. Bemorda ich ketish xolatlarini ham kuzatishimiz mumkin.
- Vestibular xilidagi bosh og'rig'i. Bunda vestibular ataksiya, bosh aylanishi hamda yurish harakatlarining aniq bo'lmasligi kabi alomatlar kuzatiladi.

### **Epizodik migren**

Bosh og'rig'i xurujlari bilan namoyon bo'ladigan migren shakli hisoblanadi. Epizodik migrenda xurujlar soni oyiga 1-14 kun davomida kechadi. Xuruj tutish vaqt esa o'rtacha 4-72 soat davomini tashkil etadi.

**Belgilari:** Boshning bir tomonida pulsatsiyalanuvchi og'riq va qo'shimcha simtomlar ko'ngil aynishi, quşish, yorug'lik va shovqinga sezgirlik holati kuchayadi. Epizodik migrenni qo'zg'atuvchilari sifatida stress, ruhiy charchoq, ovqatlanish tartibining buzilishi, havo bosimining o'zgarishi, gormonal o'zgarishlar, asosan, ayollarda hayz vaqtida va alkogolli maxsulotlar.

**Davolash choralari:** Xuruj vaqtida simtomlarni yengillashtirish uchun analgetiklar, triptanlar va ko'ngil aynishiga qarshi dorilar (Metoklopramid) tavsiya etiladi. Epizodik migren profilaktikasi uchun esa, stressni kamaytirish, jismoniy faoliytkni oshirish, uyqu rejimini tartibga solish va migrenga sabab bo'luvchi omillardan qochish, bo'yin hamda yelka massajidan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Surunkali migren**

Surunkali migrenda asosan, bir tomonlama, pulsatsiyalanuvchi yoki bosuvchi turdag'i bosh og'rig'I kuzatiladi. Unda oyiga 15 kun va undan ortiq kun davom etadi. Kamida 8 kuni esa migren simtomlari bilan kechadi.

**Belgilari:** Bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, quşish, yorug'lik va shovqinga sezgirlik, nutqning buzilishi hamda muvozanatdagi muammolar kuzatiladi. Surunkali migrenni rivojlanishiga neyrotransmitterlar (serotonin) disbalansi, gipotalamus va trigeminal tizimning faoliyati buzilishi, miyada qon aylanish buzilishi, spirlti ichimliklar, kam harakatlilik, havo bosimining o'zgarishi va epizodik migren shaklidan o'tish simtomlari kuzatiladi.

**Davolash choralari:** Xuruj vaqtida triptanlar, yallig'lanishga qarshi dorilar, ko'ngil aynishiga qarshi dorilar istemol qilinishi tavsiya etiladi. Agarda xuruj tez-tez takrorlanib tursa, Beta-blokerlar, Antikonvulsantlar, Antidepressantlar hamda Botulinum toksini inyeksiyalarni shifokor tavsiyasi bilan qabul qilish maslahat beriladi.

Surunkali migren profilaktikasi uchun uyqu tartibini saqlash ya’ni har kuni bir vaqtda uxlash va uyg’onish, o’rtacha 7-8 soat uxlash, uyqu oldidantelefon va yorug’liklarni kamaytirish

### **Xulosa**

Nevrologik kasalliklar inson asab tizimiga ta’sir qiluvchi jiddiy muammolar bo‘lib, ularning orasida migren ham keng tarqalgan. Migren bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, yorug‘lik va shovqinga sezgirlik kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladi. Uning oldini olish uchun sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, stressdan qochish, to‘g‘ri ovqatlanish va uyqu rejimini tartibga solish muhimdir. Davolash esa dori vositalari, fizioterapiya hamda muqobil usullar yordamida olib boriladi. Migrenni erta aniqlash va to‘g‘ri davolash inson hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

### **REFERENCES**

1. Asab va ruhiy kasalliklar. X.Q.Shodmonov, X.SH.Eshmurodov, O.T.Tursunova “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiyligi, Toshkent -2013
2. Bolalar fiziologiyasi U.Z.Qodirov, A.A.Abdumadjidov, V.P.Askaryans
3. Nevrologiya – Muallif: Z.Ibodullayev. Nashriyot:akadem nashr, 2017 yil
4. Н.МАЖИДОВ Umumiyyevrologiya (asab kasalliklari propedevtikasi): Tibbiyot institutlari uchun darslik. To’ldirilgan nashri-T. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti – 1995 yil
5. Umumiyyevrologiya. Muallif: Z.Ibodullayev. Nashriyot: Zamin nashr
6. В.В.КОЛЯГИН иркутск – 2010
7. T.A.DAMINOV, B.T.XOLMATOVA, U.R.BOBODEVA Toshkent “Tafakkur-bo’stoni” 2012
8. G.Q.Sodiqova, A.G’.Ahmedov, G.M.Tursunxo’jayeva Toshkent “iqtisod moliya” 2010